

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNI.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
talabasi*

*Qurbanova Nasiba Alisher qizi.
Abduraxmonova Zuxra Boburjon qizi.
Baxriddinova Madina Sadriddin qizi.*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bolalar faoliyati va shu faoliyatda tarbiyachining o'rni va kasbiga qo'yilgan burchi va talablar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, tarbiyachi, qobilyat, kommunikativ, intiluvchanlik, komptentlik.

Kirish. Biz maktabgacha ta'lim sohasida har jihatdan zamonaviy tizim yaratishimiz kerak ,bu ertangi kunimizning hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz.

SH.M.Mirziyoyev.

Maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning birlamchi bo'g'ini sifatida davlatimiz e'tirofidagi asosiy masala bo'lib kelmoqda.Uzluksiz ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim tarbiyasining pedagogik mahorat masalasi keng o'rganilgan soxalardan biri bo'lib o'ziga hos pedagogik tizimning ishlab chiqilganligi bilan tafsiflanadi . Maktabgacha ta'lim tashkilotlar ishini tashkil etish , uning mazmuni va metodlari yuzasidan asosiy ko'rsatmalar 1919 yilda Maorif halq kommissiyalarining maktabgacha tarbiya bo'limining vazifasi "oila o'chog'i va bolalar bog'chasini yuritish yuzasidan instruksiya " da bayon qilib berilgan edi. Maktabgacha tarbiya sifatini yaxshilash uchun bolalar bog'chasining ishining ilmiy asoslangan dasturini yaratish katta axamiyatga ega bo'ladi . Maktabgacha ta'lim tashkilatlarida tarbiyachi – pedagog har bir bola bilan alovida ishlashi ularni jismoniy va psixalagik tomondan o'rganishi zarur . Tarbiyachi-peda-gog avvalambor Vatanini , kasbini va albatta bolani sevishi kerak . Bolaning kelajagi uchun qayg'urgan uni kelajakda yetuk inson bo'lib tarbiyalishi uchun butun kuchini safarbar qilgan tarbiyachigina xaqiyqiy pedagog – tarbiyashi xisoblanadi . Aksincha bolaning kelajagi bilan qiziqmaydiga befarq tarbiyachi haqiqiy pedagog-tarbiyachi hisoblanmaydi .Maktabgacha ta'limda tashkil qilingan turli tadbirlarda bola tashabbus va mustaqillik ko'rsatadi , bola ixtiyoriy harakatlarga qodir. Bolalar tashabbusi bolalarning tanlovi va qiziqishlariga ko'ra erkin mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi . Tashabbus inson faoliyati , xulq-atvori va

shaxsiyatining o'ziga xos xususiyati sifatida belgilanadi , bu ichki impulsusda harakat qilish qobilyatini anglatadi , reaktivlikdan farqli o'laroq – tashqi stimullar asosida amalga oshiriladaigan xatti-xarakatlar . Bolalar bog'chasida o'yin, rasm chizish, dizayn kompoditsiya va boshqalarni o'z manfaatiga moslab qo'yish qobilyati bolaning hisiy holatining eng muxum manbayi hisoblanadi . Bolalar bog'chasida mustaqil tashabbuskorlik faoliyati shaklida bolalar faoliyatining barcha turlari amalga oshirilishi mumkun, chunki xar bir faoliyat mustaqillikning turli tarkibiy qismlarini rivojlantirishga o'ziga hos tasir ko'rsatadi. Tashabbusning har bir soxasi muayyan faoliyat orqali baholanadi ; Ijodiy tashabbus – ishtirok etish hikoya o'yini, bolaning asosiy ijodiy faoliyati sifatida , bu yerda tasavvur va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Maqsad belgilash va sifatida tashabbus idora kuchi; xar-hil turdag'i ishlab chiqarish faoliyatiga jalg qilish chizish, loyhalash , materialning “qarshilagini ” bartaraf etish uchun xarakat talab qiladigan, bu yerda o'z boshimchalik rivojlanadi, nutqning rejlashtirish funksiyasi . Aloqa tashabbusi – empatiya va nutqning kommunikativ funksiyasi ochiladigan bolaning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga kiritish. Kommunitiv tashabbus – qiziquvchanlik, tajribaga jalg qilish oddiy kommunitiv tadqiqot faoliyati , bu yerda fazoviy – vaqt, sabab va nasl-tur munosabatlarini o'rganish qobilyati rivojanadi . Xar-bir faoliyat avtonomiya va tashabbusning turli tarkibiy qismlarining rivojlanishiga o'ziga xos tasir ko'rsatadi . o'yin faoliyat va tashbbusni rivojlanishiga yordam beradi bu bolada individuallik , zukkolik , topqirlik, ijodkorlik va mustaqillikni talab qiladi. Mexnat faoliyati xarakatning maqsadga muvofiqligi va ongliligi natijaga erishishdagi qatiyatlikni shakillantirish . boshlang'ich mexnat topshiriqlarini baja-rib, bolalar birgalikda ishlashni boshlaydilar. Bolalarda mustaqillikni shakillantirish bugungi kun pedagogikasining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan . Bolalar qanchalik kichik bo'lsa , ularning mustaqil xarakat qilishi qobilyati shuncha-lik zaif bo'ladi. Ular o'zlarini nazorat qila olmaydilar , shuning uchun ular boshqa-larga taqlid qilishadi . Tarbiyachi guruhda barcha bolalarga teng darajada mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadigan ijobjiy psixologik mikroiqlimni yaratib ; yig'ilishda quvonchni ifada etib , bolaga munosabatini bildirish uchun mehr va ilq so'zdan foydalanish kerak. Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratishi zarur . Bolaning qiziqishlariga qarab mustaqil ijodiy , kongtiv faoliyati uchun sharoit yaratishi vaqt ajratishi kerak. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi ; Bolalarning bilimlarini boyitadi , madaniy , gegienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakillantirib boradi . Ammo ta'lim berishda bosh ro'lni mashg'ulot egallaydi . Mashg'ulotlar Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir , un-da dastur mazmuni belgilab berilgan . Kun tartibida unga ma'lum vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi raxbarligida o'tkaziladi , Tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egalab

olgan bilimlarni esa aniq mustaxkamlaydi . Bolalarni amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi o'quv materiya-lining mazmuni asta sekin mustaxkamlanib boradi . Demak mashg'ulot bolalarni maktabga taylorlashda katta axamiyatga ega. Mashg'ulot bolalarda diqqatni iroda-ni jalb eta olish qobilyatini rivojlantiradi. Ayniqsa bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta axamiyatga birgalikda faoliyatda bolalar bir-biri bilan o'z tashabbusi , topog'onligini namayon qilish imkoniyati tug'iladi . Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi jamoatchilik xissi shakillanadi . Har bir yosh guruxdagi bolalar o'z tarbiyachilari bilan maishiy – xo'ja-lik mexnat o'yin faoliyatida muloqotda bo'ladilar . Tariyachi bolalar o'yinini tashkil etadi,badiiy asarlarni o'qib beradi yoki hikoya qiladi ,mana shu jarayonda tarbiyachi nutqining yaxshi tomonlari ham,nuqsonlari ham yaqol namoyon bo'ladi va bu xususiyatar tarbiyalanuvchilar nutqida o'z aksini topadi.Demak,bolalar bog'chasi tarbiylanuchilarining nutq xususiyatlari to'laligicha tarbiyachi nutqiga bog'liq.Doimo bolalarning diqqat markzida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi.Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nazarda qarashi agar nutqida bironta kamchilikni sezsa uni darhol bartaraf etishi kerak.

Xulosa.

Xulosa qilib atganda Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muxim faxirli ish bilan birga masulyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining asosiy yetukligini bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq xamda jamiyat oiladagi o'z ma'sulyatini anglashda ta'lim tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga o'z maxoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak tarbiyachi avvalo bilimli bo'lishi , o'zi yashab tur-gan ulkan hayotni bilishi tabiyat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi , ijtimoi-iy faol bo'lishi umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini , bolalar ruxiyati va fizialogiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak . Shuning-dek pedagog tarbiyachining hodisalarini taxlil qilishga ilmiy nuqtai nazaridan yon-dashuvi bolalarni har tomonlama rivojlantirish muvoffaqiyatini amalga oshirishga yordam beradi . Tarbiyachi bolaga tarbiya berar ekan avvalambor o'zi Vatanparvarlik ruxida tarbiyalangan bo'lishi kerak .Bolaga tarbiya berishda tarbiyachi – pedagogning o'rni katta . Tarbiyachi har-bir bola bilan alovida ishlashi shug'ullanishi yashirin qobilyatlarini yuzaga chiqarishida bolaga yordam berishi zarur. Har-bir o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda har-bir bolaning faoligiga alovida axamiyat berib kuzatishi zarur .

Foydalilanilgan adabiyotlar .

1. 'Ilk qadam " davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 – yil 4-sonli hayati yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan .

2. Maktabgacha ta'lif muassalarida qisqa mudatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening modeli T;2017-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2019 -yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muxum tashabbus.
4. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari.

